

O'QITISH TEXNOLOGIYALARI MAZMUNI

Ramuza Joldasbaeva- Qoraqalpoq davlat universiteti o'qituvchisi

Nsanbaeva F, Xasenova J- 1 b kurs ximiya talabalari

Annotatsiya: Jamiyatimizda yangi ijtimoiy munosabatlarning shakllanishi, ta'limning dunyo ta'lim tizimiga integratsiyalashuvi, demokratiyalash va taraqqiy ettirish jarayonlarining rivojlanishi ta'lim jarayonida zamonaviy o'qitish (pedagogik) texnologiyalarga yangicha yondashuv zarurligi bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Texnologiya, ta'lim, tarbiya, dars, ilm, pedagogik, zamonaviy o'qitish

Respublikamizda bo'layotgan ijobiy o'zgarishlar ta'lim sohasida ham ma'lum yangiliklar, tubdan o'zgarishlar bo'lishini taqazo etadi. Haqiqatdan ham, chuqur bilimli, keng dunyoqarashli komil shaxsni tarbiyalash masalasi pedogoglardan yangicha ishlash prinsiplarini amalga oshirishni talab qiladi va katta ma'suliyat yuklaydi. [1] Jahon ta'limi amaliyotida qo'llanilayotgan asosiy o'qitish texnologiyalari quyida keltirilgan:

1.O'yinli texnologiyalar. 2. Muammoli o'qitish texnologiyasi. 3. Tabaqalashtirilgan o'qitish texnologiyasi. 4. Individuallashtirilgan o'qitish texnologiyasi. 5. Dasturlashtirilgan o'qitish texnologiyasi. 6. Kompyuterli o'qitish texnologiyasi. 7. Modulli o'qitish texnologiyasi. 8. Keys stadi o'qitish texnologiyasi. 9. Kreativ o'qitish texnologiyasi. 10. Rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyasi. 11. To'liq o'zlashtirish texnologiyasi. 12. Tizimli faoliyat yondashuvi asosida o'qitish texnologiyalari. 13. Fan bo'yicha faoliyat yondashuvi asosida o'qitish texnologiyalari mavjud[2].

“Keys-stadi” texnologiyasi. “Keys-stadi” (lot. “casus” – hodisa, ingl. “sase” – aniq vaziyat, amaliy holat, yig'ma, to'plam, “study” – o'qish, ta'lim) – o'quvslubi bo'lib, u tashkilot, shaxslar guruhi yoki alohida shaxslar hayotidan olingan real vaziyat asosida talabalarni muammoni aniqlash va uni maqsadga

muvofiq yechish variantlarini qidirishga yo'naltiruvchi, tashkiliy hayotda vujudga keladigan muammolarni aks ettiruvchi yasama (sun'iy) vaziyatga asoslangan. "Keys-stadi" birinchi bor 1870 yilda Garvard universitetining huquq maktabida qo'llanilgan. Hozirgi kunda uning 2 xil yo'nalishi mavjud: Garvard (muammoga yagona yechim qabul qilinadi, ish hajmi katta) va Manchester (muammoga bir nechta variantlarda yechim qabul qilinadi, ish hajmi kichik). [3]Keysda tavsiflangan aniq vaziyat o'rganishni voqyelikka bog'lab qo'yadi: ta'lim oluvchiga muammoni hal etish bo'yicha vaziyatni tahlil qilish, taxminlarni shakllantirish, muammolarni aniqlash, qo'shimcha ma'lumotni yig'ish, taxminlarni aniqlashtirish va aniq qadamlarni loyihalashtirish imkonini beradi. Keys ta'lim oluvchilarga tahlil yo'llarini izlashda erkinlikni, muammolarni identifikatsiya (aynan o'xshash qilib) qilish vaye chish yo'llarini taqdim etadi. "Keys-stadi" ta'lim usuli sifatida quyidagi funksiyalarni (vazifalarni) amalga oshiradi: • ta'limiy: (nazariy bilimlarni egallagandan so'ng) o'rganilgan mavzu (kurs) bo'yichabilimlarni mustahkamlash; amaliy vaziyatlar tahlili sxemasi bilan tanishish malakasini (seminar mashg'ulotlari davomida, asosiy kurs jarayonida) hamda guruh yoki individual ravishda muammoni tahlil qilish va qarorga kelish (trening tartibi doirasida) ko'nikmalarini qayta mustahkamlash; •rivojlantiruvchi: bilimorttirish, ijodkorlik, mantiqiy fikrlash, nutq, o'z-o'zini yo'naltirish, real sharoitlarga moslashish qobiliyatlarini rivojlantirish; motivatsion: yangilikka tayyor turish va mustaqil qaror qabul qilishga qiziqtirish; •tarbiyaviy: javobgarlik,mas'uliyat,mustaqillik,kommunikativlik, empatiya, refleksiyanishakllantirish; • nazorat-analitik: o'quvaxborotini egallash sifatini nazorat qilish (ta'lim dasturi so'nggida).

Muammoli ta'lim texnologiyalari – o'quvchi faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan. Muammoli ta'lim texnologiyasining asosi – insonning fikrlash jarayoni muammoli vaziyatni hal etishdan boshlanishi hamda uning muammolarni aniqlash, tadqiq etish va yechish qobiliyatiga ega ekanligidan kelib chiqadi. Muammoli ta'lim o'quvchilarning ijodiy tafakkuri va ijodiy qobiliyatlarini oshirishda katta ahamiyatga ega[4]

Rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalari. Bularga o'quvchi shaxsining ijodiy sifatlarini, ayrim sohalaridagi bilimlarni, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish texnologiyalar kiradi.

Pedagogik texnologiya – axborotlarni o'zlashtirish, ulardan amalda foydalanish, ulardagi yangi ma'no-mazmunlarni hamda axborotlar orasidagi turli bog'liqliklarni ochish orqali yangi axborotlar yaratishga o'rgatish jarayonidan iborat. Pedagogik texnologiya – ta'lim metodlari, usullari, yo'llari hamda tarbiyaviy vositalar yig'indisi. U pedagogik jarayonning tashkiliyuslubiy vositalari majmuidir. Pedagogik texnologiya – ta'lim mazmunini qulay shakl va usulda uzatish hamda o'zlashtirish jarayonidan iborat. Pedagogik texnologiya ta'lim oluvchini mustaqil o'qishga, bilim olishga, fikrlashga o'rgatishni kafolatlaydigan jarayondir. Pedagogik texnologiya jarayonida o'qituvchirahbarligida o'quvchi mustaqil ravishda bilim oladi, o'rganadi va o'zlashtiradi. Pedagogik texnologiya – oldindan belgilangan maqsad bo'yichasonga ta'lim-tarbiyaviy ta'sir o'tkazish faoliyatidan iborat[5]. Pedagogik texnologiya – o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqishlarini, ijodiy izlanishlarini, mantiqiy tafakkurini rivojlantirishga, mustaqil fikrlash, mushohada yuritishga qaratilgan ta'lim-tarbiya berishning faol shakl, usul va vositalari majmuasi. U pedagogik jarayonni mazmunli, samarali amalga oshirish texnikasi hisoblanadi.

Xulosa qilib aytiladigan bo'lsa, o'qitish texnologiyalari va ularning turlari ta'lim jarayonini hamda o'qituvchilarni, hamda o'quvchilarni faollashtiradi. Ta'limga yangicha yondashiladi va albatta ta'lim sifatini oshadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining ta'lim to'g'risidagi qonuni. Lex.uz. O'RQ - 637-son. 23.09.2020 yil
2. "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-sonli qarori;

3. “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmoni.
4. Zamirovna A. N., Bahodirovna Z. R. KIMYO FANIDAN “OQSILLAR” MAVZUSINI O ‘QITISHDA ILG‘OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING ROLI //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 22. – №. 2. – С. 49-51.
5. Nargiza A. DEVELOPMENT OF AN IMPROVED TWO-STAGE TECHNOLOGY FOR FIXING MOVING SOILS AND SANDS WITH THE USE OF A MECHANO-CHEMICAL DISPERSER //Universum: технические науки. – 2022. – №. 11-8 (104). – С. 26-29.